

RESPUBLIKAMIZDA MOLIYAVIY HISOBNI XALQARO  
STANDARTLAR ASOSIDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

*Bositova Samiya Bahodir qizi*

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti  
UOS BA (HONS) Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti 3- bosqich talabasi  
[bositovasamiya@gmail.com](mailto:bositovasamiya@gmail.com)*

PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF FINANCIAL ACCOUNTING  
BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS IN OUR REPUBLIC

Bositova Samiya Bakhodir qizi

3rd-year student of the UOS BA (HONS) Accounting and Finance program  
Tashkent International University of Financial Management and Technologies  
[bositovasamiya@gmail.com](mailto:bositovasamiya@gmail.com)

ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ФИНАНСОВОГО УЧЕТА НА ОСНОВЕ  
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ В НАШЕЙ РЕСПУБЛИКЕ

Боситова Самия Баходир кизи

Студентка 3 курса направления «UOS BA (HONS) Бухгалтерский учет и  
финансы» Ташкентский международный университет финансового  
менеджмента и технологий  
[bositovasamiya@gmail.com](mailto:bositovasamiya@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) joriy etishning ahamiyati va istiqbollari tahlil qilinadi. Respublikada MHXSga o'tish bo'yicha qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «**Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**»gi 2020- yil 24- fevraldagi **PQ-4611** sonli qarori, «**Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**»gi 2025-yil 15-sentabrdagi **PQ-282** sonli qarorlar solishtirma tarzda ko'rib chiqiladi.

Maqolada MHXSning milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyani kuchaytirishdagi roli yoritiladi hamda MHXSni joriy etishdagi muammolar va ularni hal etish yo'llari muhokama qilinib, buxgalteriya hisobining shaffofligini ta'minlash va investitsion jozibadorligini oshirishga o'z xissasini qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** MHXS(moliyaviy hisobotning xalqaro standarti), strategiya, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy islohotlar, ilmiy tahlil, shaffoflik, transformatsiya, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar, CIPA(Certified International Professional

Accountant), ACCA (Association of Chartered Certified Accountants), CPA (Certified Public Accountant), DipIFR (Diploma in International Financial Reporting).

**Annotation:** This article analyzes the importance and prospects of implementing International Financial Reporting Standards (IFRS) in the Republic of Uzbekistan. The study comparatively examines the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4611 dated February 24, 2020, “**On additional measures for the transition to International Financial Reporting Standards,**” as well as the Resolution No. PQ-282 dated September 15, 2025, “**On measures to improve the financial accounting system in accordance with international requirements and standards.**”

The article highlights the role of IFRS in increasing the inflow of foreign investments into the national economy and strengthening integration with international financial markets. Furthermore, the challenges associated with the implementation of IFRS and possible ways to address them are discussed. The study also emphasizes that the introduction of IFRS contributes to ensuring transparency in accounting and enhancing the investment attractiveness of the national economy.

**Keywords:** IFRS (International Financial Reporting Standards), strategy, foreign investments, economic reforms, scientific analysis, transparency, transformation, Public Interest Entities, CIPA (Certified International Professional Accountant), ACCA (Association of Chartered Certified Accountants), CPA (Certified Public Accountant), DipIFR (Diploma in International Financial Reporting).

**Аннотация:** В данной статье анализируются значение и перспективы внедрения международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) в Республике Узбекистан. В работе в сравнительном аспекте рассматриваются постановление Президента Республики Узбекистан № PQ-4611 от 24 февраля 2020 года «**О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности**», а также постановление № PQ-282 от 15 сентября 2025 года «**О мерах по совершенствованию системы финансового учета в соответствии с международными требованиями и стандартами**».

В статье освещается роль МСФО в увеличении притока иностранных инвестиций в национальную экономику и укреплении интеграции с международными финансовыми рынками. Кроме того, рассматриваются проблемы внедрения МСФО и пути их решения. Отмечается, что внедрение МСФО способствует обеспечению прозрачности бухгалтерского учета и повышению инвестиционной привлекательности экономики страны.

**Ключевые слова:** МСФО (Международные стандарты финансовой отчетности), стратегия, иностранные инвестиции, экономические реформы, научный анализ, прозрачность, трансформация, организации общественного значения, CIPA (Сертифицированный международный профессиональный

бухгалтер), АССА (Ассоциация дипломированных сертифицированных бухгалтеров), CPA (Сертифицированный бухгалтер-практик), DipIFR (Диплом по международной финансовой отчетности).

### **Kirish**

Bugungi kunda dunyoda globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari tobora jadallashib bormoqda. Bunday sharoitda har qanday davlat iqtisodiyoti jahon iqtisodiy tizimi bilan uzviy bog‘lanmasdan turib barqaror rivojlanishi qiyin. Jahon bozoriga integratsiyalashuv mamlakatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy boshqaruv tajribalarini joriy etish imkonini beradi. Shu sababli ko‘plab davlatlar o‘z iqtisodiyotini xalqaro talablarga mos ravishda rivojlantirishga intilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish yo‘lida muhim islohotlarni amalga oshirmoqda.

Mazkur jarayonda korxonalar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mos bo‘lishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) korxonalar moliyaviy faoliyati haqida aniq, tushunarli va solishtiriladigan ma‘lumotlarni taqdim etishga xizmat qiladi. Ushbu standartlar turli mamlakatlardagi kompaniyalar moliyaviy natijalarini yagona tamoyillar asosida baholash imkonini yaratadi. Natijada investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar korxonalar moliyaviy holatini yanada aniqroq tahlil qila oladi. Shu jihatdan MHXSning joriy etilishi nafaqat korxonalar faoliyatini tartibga solish, balki milliy iqtisodiyotning ochiqligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

MHXS — bu biznes faoliyati va moliyaviy ma‘lumotlarni xalqaro miqyosda tushunish, tahlil qilish hamda taqqoslash imkonini beruvchi umumiy qabul qilingan qoidalar va tamoyillar tizimidir. Ushbu standartlar moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish, investorlarga to‘liq va aniq ma‘lumot taqdim etish hamda iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, MHXSni amaliyotga joriy etish orqali mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, korxonalarining xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va biznes muhitining jozibadorligini oshirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati ham moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga katta e‘tibor qaratmoqda. So‘nggi yillarda bu borada qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «**Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida**»gi 2020-yil 24-fevraldagi PQ-

**4611-son qarori** hamda «**Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**»gi **2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-son qarorlari** mamlakatda MHXSni joriy etish jarayonini jadallashtirish, korxonalar moliyaviy hisobotlarini xalqaro talablarga moslashtirish hamda bu sohada malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu qarorlar orqali korxonalarda moliyaviy hisobotlarni yuritish tizimini takomillashtirish, zamonaviy buxgalteriya hisobi usullarini qo‘llash va xalqaro tajribani amaliyotga joriy etish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Shuningdek, xalqaro integratsiyalashuv jarayonida MHXS lardan foydalanish - xorijiy mamlakatlar moliyaviy holatini tushungan holda mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish [1]choralari belgilab qo‘yilgan.

### **Adabiyotlar sharhi**

Respublikamizda moliyaviy hisobni xalqaro standartlar asosida joriy etish masalalari ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, professor S.Tashnazarov doktorlik dissertatsiyasida hisob va hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, shu asosda moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida garmonizatsiyasiga erishish hamda ilg‘or tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish barcha mamlakatlar uchun eng dolzarb masalalardan biri ekanligini ta’kidlab, ushbu yo‘nalishda ilmiy tahlillar olib borgan [4].

Shuningdek, iqtisodchi olimlar A.A.Karimov, M.Rahimov va I.Qo‘ziyevlar tomonidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning istiqbollari va uning milliy hisob tizimiga ta’siri masalalari ilmiy jihatdan o‘rganilgan [5]. A.Z.Avloqulov esa moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni yuritish masalalarini tadqiq etgan [6].

Iqtisodchi olimlar Turayev va Boltayevalar tomonidan pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida, xususan, bevosita usuldan foydalangan holda tuzish tartibi hamda bu jarayon investorlarning moliyaviy hisobotlarga bo‘lgan ishonchliligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [7].

Bundan tashqari, iqtisodchi Xudayberdiyeva N.M. O‘zbekiston Respublikasida budget hisobi va hisoboti tizimini rivojlantirish zarurligi, davlat sektorida hisob va hisobot tizimini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajriba, budget hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirishda xalqaro standartlar talablaridan foydalanish hamda mamlakatimizda xalqaro standartlarni moslashtirish asosida budget hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish masalalarini o‘rganib chiqqan [8].

Shuningdek, iqtisodchi Axmadoxunova A.X. global iqtisodiyot sharoitida global buxgalteriya siyosatini qabul qilish va uyg'unlashtirish holati, O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tishi hamda mamlakat buxgalteriya siyosatida yangi bosqichni boshlashning ustuvor ahamiyati haqida ilmiy izlanishlar olib borgan [9].

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining MHXS bo'yicha qarorlarining tahlili.

O'zbekiston hukumati MHXSga o'tishni bosqichma-bosqich va tizimli amalga oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu borada qabul qilingan bir qator Prezident qarorlari strategik yo'nalishni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror MHXSga o'tish jarayonini tezlashtirishda fundamental asos bo'ldi. Qarorga ko'ra:

- Majburiy o'tish muddatlari: Aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab buxgalteriya hisobini MHXS asosida tashkil etishi hamda 2021-yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotlarni MHXS asosida tuzishi belgilandi.

- Mutaxassislar malakasi: 2021-yil oxiriga qadar buxgalteriya xizmatlari xodimlarining kamida uch nafari "MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot" fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risidagi hujjatga yoki xalqaro sertifikatlardan (CIPA, ACCA, CPA, DipIFR) biriga ega bo'lishi shartligi belgilandi.

- Vakolatli organ: Moliya vazirligi MHXSni joriy etish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi va unga MHXSni joriy etish monitoringi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish kabi vazifalar yuklandi.

- Ixtiyoriy o'tish va imtiyozlar: Ixtiyoriy ravishda MHXS asosida hisobot tuzayotgan tadbirkorlik sub'ektlari milliy buxgalteriya hisobi standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etildi.[2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-sonli "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatda moliyaviy hisob tizimini yanada modernizatsiya qilish va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu qaror moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishni kengaytirish, buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Qarorga ko'ra:

- Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar (Public Interest Entities) tushunchasi joriy etildi: faoliyat turi, aktivlari hajmi, yillik tushumi va xodimlar soni bo'yicha iqtisodiyotga katta ijtimoiy va iqtisodiy ta'sir ko'rsatadigan korxonalar alohida toifaga

kiritiladi. Ushbu tashkilotlar MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzishi lozim.

- Maxsus reyestr tashkil etilishi: belgilangan mezonlarga javob beradigan tashkilotlar har yili 1-iyulgacha Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestriga kiritiladi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab ushbu reyestr Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan elektron shaklda yuritiladi hamda Hukumat portali va ochiq ma'lumotlar platformalarida e'lon qilib boriladi.

- MHXSga majburiy o'tish talablari: reyestriga kiritilgan tashkilotlar keyingi yilning 1-yanvaridan boshlab buxgalteriya hisobini MHXS asosida yuritishi shart. Shuningdek, ikki yil davomida yangi tizim asosida ishlaganidan so'ng moliyaviy hisobotlarni auditorlik xulosasi bilan birga e'lon qilish talabi joriy etiladi.

- Institutsional tizimni rivojlantirish: qaror doirasida MHXSni joriy etish jarayonini muvofiqlashtirish uchun respublika komissiyasi hamda buxgalteriya hisobi va audit sohasini metodologik jihatdan takomillashtirishga xizmat qiluvchi Metodologik kengash tashkil etildi.[3]

- Mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash: xalqaro buxgalteriya sertifikatlarini olish uchun imtihon topshirgan fuqarolarning ayrim xarajatlarini davlat byudjeti hisobidan qoplash mexanizmi joriy etildi, bu esa malakali mutaxassislar tayyorlashni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

**Moliyaviy hisobni MHXSga o'tkazish bo'yicha 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli va 15.09.2025 yildagi PQ-282-sonli qarorlarni bir-biridan farqli jihatlari:**

<b>Asosiy jihatlar</b>	<b>PQ-4611 (2020-yil 24-fevral)</b>	<b>PQ-282 (2025-yil 15-sentabr)</b>	<b>Ilmiy tahlil va farqlari</b>
Qarorning maqsadi	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish jarayonini boshlash, yirik korxonalarni amaliyotga tayyorlash va ularni MHXSga moslashtirish	Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq chuqurlashtirish, modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini kuchaytirish	PQ-4611 boshlang'ich bosqich, asosiy e'tibor o'tish jarayonini boshlash va tayyorgarlik, PQ-282 esa tizimli, kengaytirilgan va integratsion yondashuvni belgilaydi
Majburiy o'tish toifalari	Aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, yirik soliq to'lovchilar	Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar (Public Interest Entities — PIE): faoliyat turi, aktivlar hajmi, yillik tushumi va xodimlar soni bo'yicha belgilangan	PQ-282 toifalarni aniq mezonlar bilan belgilaydi va global standartlarga mos keladigan tashkilotlarni ajratadi, PQ-4611 esa faqat yirik korxonalarni boshlang'ich

			bosqichda qamrab oladi
Mutaxassislar malakasi	Buxgalteriya xodimlaridan kamida uch nafari MHXS bo'yicha sertifikatga ega bo'lishi yoki xalqaro sertifikatlardan (CIPA, ACCA, CPA, DipIFR) biriga ega bo'lishi shart	Xalqaro sertifikat olish uchun imtihon xarajatlarini qoplash mexanizmi joriy etilgan; mutaxassislarni tayyorlash va rag'batlantirish	PQ-282 rag'bat va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan institutsional yondashuvni mustahkamlaydi, PQ-4611 esa faqat minimal talablarni belgilaydi
Vakolatli organ / institutsional tizim	Moliya vazirligi MHXSni joriy etish vakolatli organ sifatida belgilangan	Respublika komissiyasi va Metodologik kengash tashkil etilgan; MHXSni joriy etish, metodologik qo'llab-quvvatlash va monitoring	PQ-282 institutsional tizimni kengaytiradi va metodologik yondashuvlarni joriy qiladi, PQ-4611 esa faqat vakolatli organi belgilaydi
Ixtiyoriy o'tish va imtiyozlar	Ixtiyoriy ravishda MHXS asosida hisobot tuzayotgan tadbirkorlar milliy buxgalteriya hisobi standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod	Reyestrda kiritilgan tashkilotlar majburiy ravishda MHXSga o'tadi	PQ-282 majburiyatni aniq belgilaydi, PQ-4611 esa ixtiyoriy o'tish imkoniyatini beradi

### **Xulosa va takliflar**

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishni men shunchaki texnik jarayon emas, balki mamlakat iqtisodiyotining global moliya bozorlariga integratsiyalashuvi hamda investorlar ishonchini qozonishidagi eng muhim strategik qadam deb bilaman.

Shu ma'noda, 2020-yildagi PQ-4611 qarori tizimning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, yirik korxonalar uchun aniq majburiyatlarni belgilab bergan bo'lsa, 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282 qarori bu islohotlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi. Men ushbu hujjat bilan "jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar" tushunchasining kiritilishi va maxsus reyestrning shakllantirilishini institutsional qo'llab-quvvatlashning mustahkam mexanizmi sifatida baholayman. Zero, mutaxassislarni rag'batlantirish orqali tizimli yondashuvni yo'lga qo'yish bugungi kunda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda.

Biroq, bu murakkab yo'lda e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan ayrim ochiq masalalar ham yo'q emas. Xususan, malakali kadrlar yetishmasligi va texnologik infratuzilmaning yangilanishi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etmasdan turib, ko'zlangan natijaga erishish qiyin. Shundan kelib chiqib, men quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman:

Ta'lim va malaka: Mutaxassislarni xalqaro sertifikatlar orqali tayyorlash va ularni

moddiy-ma'naviy rag'batlantirish tizimini kuchaytirish lozim.

Texnologik integratsiya: Hisob tizimlarini to'liq avtomatlashtirish orqali inson omilini kamaytirish va hisobotlar aniqligini ta'minlash zarur.

Ishonchli nazorat: Muntazam auditorlik tekshiruvlari va jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrini samarali yuritish orqali moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash shart.

Xulosa o'rnida aytishim mumkinki, MHXS — bu zamonaviy biznesning umumiy tili bo'lib, undan samarali foydalanish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun mustahkam kelajak poydevorini yaratadi. Bu islohotlar bizni global moliya bozorida yanada jozibador va raqobatbardosh qilishiga ishonchim komil.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. PF-60 28.01.2022
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-sonli "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
4. S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T.: 2019. 74-bet.
5. A. Karimov, I. Qo'ziyev, M. Rahimov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish: muammo va istiqbol "Xalqaro ilmiy moliya va hisob" jurnali. № 4, avgust, 2020 yil 3-bet.
6. Avloqulov A.Z. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarni aks ettirish xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. T.:2020. 243-bet.
7. Turayev A.N. va Boltayeva D.J. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzishni takomillashtirish. "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish va xalqaro tajribani o'zbekistonda qo'llashning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy anjuman maqolalar to'plami. T.:2022. 373-bet.
8. Xudayberdiyeva N.M. Xalqaro standartlarni moslashtirish asosida budjet hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish chora tadbirlari. "Tafakkur manzili" jurnali. 2022. 219-bet.
9. Axmadoxunova A.X. O'zbekiston iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tishning roli va ahamiyati. "Scientific progress" jurnali. № 2, 2021 257-bet.